XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI
NAVBAHOR TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 17 - noyabr VI-65-119-5-73-K/23 Navbahor tuman hokimligi

“Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash” bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2023-yil 19-oktabrdagi №01-20-345-sonli yig‘ilish bayonini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi tomonidan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi Nizomga asosan Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi shaharchalar va qishloqlar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2023-yil 19-oktabrdagi №01-20-345-sonli yig‘ilish bayoni o‘rganildi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Navbahor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Aerogeodeziya Markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi tomonidan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlar o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Navoiy viloyati Navbahor tumanida bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2023-yil 19-oktabrdagi №01-20-345-sonli yig‘ilish bayoni tasdiqlansin.

2. Navbahor tumani shaharcha va qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda chegaralarni belgilash bo‘yicha xarita 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Jumaboyev va Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **А.Ўроқов**


Xalq deputatlari Navbahor tuman
Kengashining
2023-yil 17-noyabrdagi
VI-65-119-5-73-K/23-son qaroriga
1-ilova

Navbahor tumanidagi shaharchalar va qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Shaharchalar va qishloqlar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1	Arabsaroy qishlog'i	61 350,32	10 024,22
2	Yangiqo'rg'on qishlog'i	27 986,27	2 816,58
3	Keskenterak qishlog'i	74 307,02	12 520,34
4	Beshrabot qishlog'i	48 393,82	5 072,55
5	Yangiyo'l qishlog'i	70 794,45	8 256,18
6	Turkiston qishlog'i	99 097,15	8 641,12
7	Olchin qishlog'i	198 601,33	104 194,74
8	Saroy shaharchasi	7 043,24	141,92
9	Keskanterak shaharchasi	7 066,33	189,53
10	Ijand shaharchasi	10 811,92	270,74
11	Qalqonota shaharchasi	8 714,81	144,93
12	Quyi Beshrabot shaharchasi	8 747,80	259,95
13	**Jami**	**622 914,45**	**152 532,79**

Xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashining
2023-yil 17-noyabrdagi
VI-65-119-5-73-K/23-son qaroriga
2-ilova


Sh
G'
Shq
J
Navoiy viloyati Navbahor tumani shaharcha va qishloqlarining
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari
XARITASI
Olchin qishlog'i
Keskanterak
qishlog'i
Beshrabot
qishlog'i
Keskanterak
shaharchasi
Arabsaroy qishlog'i
Quyi Beshrabot
shaharchasi
Yangiyo'l
qishlog'i
Qalqonota
shaharchasi
Ijand
shaharchasi
Yangiqo'rg'on
qishlog'i
Saroy
shaharchasi
Turkiston
qishlog'i